



Received: April 20, 2024
Accepted: June 23, 2024
Available online: June 25, 2024

Shoxida Abdullayeva

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA G'AZNACHILIK SOHASIGA OID MOLI- YAVIY-IQTISODIY TERMINLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

ANNOTATSIYA

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va integratsiyasi mamlakatimizning iqtisodiyot hamda moliya sohaslarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga turtki bo'ldi. Bu, o'z navbatida, g'aznachilik sohasini rivojlantirish hamda moliyaviy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirish davrida, soha uchun bir necha xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taqozo qiladi. Shuning uchun ingliz, o'zbek va rus tillarida g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan terminlarning ilmiy-nazariy jihatlarini bo'yicha tadqiqot olib borish bugungi kunda muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad ingliz, o'zbek va rus tillaridagi g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisod terminlarining lingvistik xususiyatlari (o'xshash va farqli jihatlarini) ochib berish hamda terminlarning yasash (hosil bo'lish) yo'llarini aniqlashdan iborat. Xususan, bu borada tadqiqot davomida bajarilishi belgilangan vazifalar ingliz, o'zbek va rus tillarida (1) g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarni aniqlash, ularning ushbu sohaga xoslanish jihatlarini ochib berish; (2) mazkur sohalarga oid terminlar tizimining shakllanishida interterminlarning roli, o'rni, paydo bo'lish va qo'llanish shart-sharoitlarini yoritish; (3) g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning ustuvor derivatsion modellari (affiks, morfemik-morfologik, leksik-semantik, sintaktik) aniqlash va ishlab

Shokhida Abdullaeva

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: abdullaevashoxida9@gmail.com
ORCID iD: 0009-0006-9139-2143

COMPARATIVE ANALYSIS OF FINANCIAL AND ECONOMIC TERMS RELATED TO TREASURY IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN

ABSTRACT

The globalization and integration of financial and economic processes in the world economy have prompted the need to elevate our country's economic and financial sectors to a higher standard. This necessitates the training of qualified and competitive personnel capable of communicating fluently in multiple foreign languages, to support the deepening reforms aimed at developing the treasury sector and achieving financial stability.

The main aim of this study is to uncover the linguistic features, both similarities and differences, of financial and economic terms used in the field of treasury in English, Uzbek, and Russian languages. The specific tasks to be carried out during the research in English, Uzbek, and Russian languages with the help of the research methods such as comparative-typological (comparative), component and statistical analysis include:

1. Defining the financial and economic terms used in the field of treasury and revealing their characteristics.
2. Clarifying the role, place, conditions of appearance, and use of interterms in the formation of the system of terms.
3. Identifying and developing priority derivational models (affixal, morphemic-morphological, lexical-semantic, syntactic) of financial and economic terms.

The research results indicate that mixed languages have gone through a stage of acquiring new concepts during their development. Besides, the presence of terms borrowed from languages, such as English, Russian, Italian, French, Greek,

chiqish, o'ziga xos xususiyatlarini chog'ishtirma tadqiq qilishdan iborat. Maqolada ayni vazifalarni samarali bajarishda qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), komponent tahlil, statistik tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chog'ishtirilayotgan tillarning har biri muayyan rivojlanish bosqichida yangi tushunchalarni o'zlashtirish bosqichini boshidan kechirgan. Mazkur jarayonda to'g'ridan to'g'ri so'z o'zlashtirish, kalkalash va transliteratsiya muhim rol o'ynaydi. Xususan, uch tilning zamonaviy moliya-iqtisod terminologiyalari tarkibida ingliz, rus, italyan, fransuz, grek, lotin, fors, arab va boshqa tillardan o'zlashgan terminlarning mavjudligi xalqlar o'rtasidagi tarixiy, madaniy ta'sir kontaminatsiyasidan dalolat beradi.

Xullas, g'aznachilik sohasida qo'llanadigan moliya-iqtisod terminlarini ingliz, o'zbek va rus tillari misolida chog'ishtirma yo'sinda o'rganish nafaqat o'rganilayotgan tillar leksikasidagi tizimli munosabatlarni, balki mazkur tillardagi qiyosiy-tipologik tadqiqotlar bilan bir qatorda tavsifiy-nazariy, pragmatik tadqiqotlar, g'aznachilik, moliya-iqtisod sohasiga oid terminologiya bo'yicha bosma va elektron lug'atlarni tuzish uchun ham muhim sanalgan leksik-semantik hodisalardagi tafovutlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: moliya, termin, o'zbek tili, iqtisodiyot, chog'ishtirma tahlil, terminologiya, g'aznachilik, intertermin, ingliz tili, leksika.

KIRISH

Jahon tilshunosligida maxsus terminologik ma'no kasb etgan o'ziga xos til birligi, ya'ni termini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab lingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ilm-fan, texnika taraqqiyotidagi keskin yuksalish va ishlab chiqarish, sanoatning jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida determinlashgan terminning tabiatiga nisbatan XIX asrda yuzaga kelgan ilmiy-falsafiy qiziqish bu kabi tadqiqotlar uchun har tomonlama muhim shart-sharoit yaratdi. Xususan, XVIII–XIX asrlarda terminologiya muammolari tilshunoslarning diqqat markazida bo'ldi, chunki bunga terminlarning yaratilishi hamda ekstralingvistik omillarning terminologiyaga ko'rsatadigan inkor etib bo'lmaydigan ta'siri sabab bo'ldi. Vaholanki, terminologiyada uchrovchi sinonimiya va polisemiya muammolari, shuningdek, termin-leksemalar, gibrid terminlar va sof terminlarning kontekstdagi paradigmatic-sintagmatik munosabatlari, muayyan tushunchalar bilan o'zaro aloqalarning xilma-xilligi [Sageder, 2010; 124] xususidagi masalalar tadqiqotchi olimlarni ko'proq fikr-mulohaza yuritishga chorlagan. O'z navbatida, "termin" va "terminologiya" masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqot

Latin, Persian, Arabic, and others in modern financial and economic terminologies of the three languages suggests a historical and cultural interchange between nations.

An analysis of financial and economic terms used in the field of treasury in English, Uzbek, and Russian languages demonstrates the systematic relationships in the vocabulary of these languages. This study also encompasses descriptive-theoretical and pragmatic investigations related to the field of treasury on finance, and economy. Furthermore, it involves comparative-typological studies in these languages, which help identify differences in lexical-semantic phenomena.

Key words: finance, term, the Uzbek language, economy, comparative analysis, terminology, treasury, interterm, the English language, lexicon.

ishlarida keltirilgan ta'riflarga to'xtalsak, quyidagilarni qayd etishimiz joiz: (1) "termin" leksemasi lotincha "*terminus*" so'zidan kelib olingan bo'lib, u "oxiri", "chek", "chegara", "tugash" ma'nolarini bildiradi [Krysin, 1998; 203]; termin – tuzilishiga ko'ra so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir [Nishonov, 2009; 17]; u "shunchaki so'z" emas, balki u "noodatiy" yoki "yangi so'z" bo'lsin, uni "ratsionallashtirish" va, hatto "o'ylab topish" mumkin bo'lsa ham u, eng avvalo, so'zdir [Reformatskiy, 1967; 121]; ... ham ishlab chiqarish qurollari sohasida, ham madaniyat va fan sohasidagi har qanday yangiliklar dastavval til birliklari, to'g'rirog'i, terminlar orqali o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda terminologiya (ma'lum tildagi terminlar majmui) zamona tarixining guvohi, ko'zgusidir [Usmonov, 1968; 3]. Bizningcha esa, termin o'z lingvistik tabiatiga ko'ra, adabiy til lug'aviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, boshqa toifadagi so'zlardan ilmiy, texnikaviy yoxud boshqa kasbiy tushunchalarni aniq, ixcham ifodalashi va axborotga boyligi bilan ham sezilarli darajada ajralib turadi.

Binobarin, terminlarni o'rganishning zamonaviy bosqichida terminlar u yoki bu sohada birlamchi o'rinni egallashi yoxud semantik dominantlik kasb etishi e'tirof qilinmoqda. Misol uchun, zamonaviy terminshunoslikda rasman qabul qilingan va lug'atlarda qayd qilingan "terminologiya", "terminosistema", "terminologik maydon" singari terminlar bilan bir qatorda "terminosfera" tushunchasidan foydalanish keng tarqalgan. Aniqrog'i, "terminosfera" muayyan bilim sohasiga oid terminlar yig'indisi bo'lib, u yagona terminosistemani ifodalamaydi, ya'ni uning birliklari umumilliy sohaga oid tillarda, shuningdek, turli ilmiy sohalarda ham amal qiladi. Shu bilan birga, "terminosfera" tushunchasi tarkibining xilma-xilligi bois uni iqtisodiy terminologiyaga nisbatan qo'llash mumkin [Proshina, 2008; 83]. Masalan, Y.V. Kinchinaning tadqiqoti inglizcha iqtisodiy terminlarni tasniflash va tizimlashtirish yo'llarini aniqlashga, ularning leksik-semantik xususiyatlari tahliliga, mazkur terminlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqotchi terminlarni o'zlashtirish omilini va tarjima jarayonini iqtisodiy terminosferaning rivojlanishini ta'minlovchi ikki muhim jihat sifatida e'tirof etadi [Kinchina, 1999; 29].

XX asrning oxiriga kelib iqtisodiyot sohasi bilan bog'liq lingvistik tadqiqotlarning ortishi kuzatildi: O.L. Shaxbazyan bozor iqtisodiyotini terminologik kontinium sifatida, iqtisodiy terminlarni o'zlashtirish va derivatsion jarayonlar [Shakhbazyan, 2008]. V.V. Kasyanov moliya sohasi terminologiyasini ingliz va rus tillaridagi qiyosiy tahlili [Kas'yanov, 2001], O.S. Axmedov soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili, tarjima muammolarini ingliz va o'zbek tillari asosidagi tadqiqi [Axmedov, 2016], L.N. Mitireva iqtisodiy terminlar materiali asosida neologizmlarning psixolingvistik tahlili [Mitireva, 2002], Y.V. Kinchina iqtisodiyot terminologiyasining asosiy shakllanish yo'llari va manbalarini aniqlash [Kinchina, 1999] bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Zero, moliya-iqtisod terminlarini tilshunoslik obyekti sifatida o'rganishning dolzarbligi ushbu sohalarning jadal rivojlanishi va shu sohalarda bilan bog'liq terminologiyaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Qayd etish joizki, o'zbek tiliga

davlat tili maqomi berilganidan to bugungi kunga qadar xalqaro munosabatlarning kengayib borishi, jahon iqtisodiyotidagi uzluksiz integratsiya jarayonlari o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishiga bevosita xizmat qildi. Shuningdek, davlatning xizmat ko'rsatish va servis sohalari spektrining kengayishiga bog'liq ravishda moliya-iqtisod yo'nalishida diskursiv faollashish jarayoni yuz berdi. Biroq, mamlakatimizda moliya-iqtisod terminologiyasi yoki uning tarkibiy qismlarini lingvistik tadqiq qilishga intilishlar nisbatan kam bo'ldi. Chorak asrdan ortiq vaqt mobaynida rivojlanib kelayotgan moliya tizimi bugungi jamiyatning barcha qatlamlari bilan o'zaro hamkorlik qilmoqda; ayni vaqtda terminologik birliklarning qo'llanish darajasi ham rivojlanmoqda.

XX asr oxirlarida Rossiya iqtisodiyotida kuzatilgan bozor islohotlari rus marketing terminologiyasining shakllanish va rivojlanish jarayonlariga turtki bo'lib, u dastlab o'zlashma terminlar va kalkalash yo'li bilan olingan maxsus nominativ birliklar hisobiga boyib bordi. Keyinchalik esa rus tilining derivatsion qonunlariga bo'ysungan holda termin yasash jarayonlari ham kuzatildi [Serbinovskaya, 2008; 3]. Jumladan, T.S. Kondratyeva tadqiqot ishida moliya-bozor terminosistemasining "derivatsion metatil birliklar tizimi – terminologik so'z birikmalari, sodda termin derivantlar, abbreviaturalar"dan shakllanganligini qayd etib, u "Iqtisod-Bozor-Huquq"ni integratsiyalashgan global terminfazo sifatida baholaydi [Kondrat'yeva, 2001; 8]. Z.A. Valiyeva, o'z navbatida, bank-moliya ishida ilg'or innovatsion texnologiyalarning tatbiq qilinishi va ularning rivojlanish dinamikasi tufayli moliya-bank terminlari shakllanishining turli jihatlarini tahlil qilish amalda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [Valiyeva, 2009]. Mazkur tadqiqotlar turli sistemaga mansub tillarning bozor iqtisodiyoti terminosistemalarini o'rganishga qaratilganligini ko'rish mumkin. Xususan, tilshunoslar terminlar masalasida semantik, sintaktik, so'z o'zlashtirishning bir necha usullarini ajratib ko'rsatadilar. Aniqrog'i, kelib chiqishi lotincha, yunoncha, fransuzcha va inglizcha bo'lgan o'zlashmalar terminosistemalarning asosiy manbalari sifatida tilga olinadi. Vaholanki, bunday o'zlashma terminlar, terminologik birliklar muayyan kasbiy nutq va umumadabiy tilda real muloqot ehtiyojlariga moslashish jarayonlarini bosib o'tishiga to'g'ri keladi.

G'aznachilik terminologik maydoni va uning yadroviy hududi sanalmish g'aznachilik terminosistemasiga ekstralingvistik omillar so'zsiz ta'sir o'tkazadi. Ularga ta'sir qiluvchi kuchning shakllari va darajalariga ko'ra, tarixiy, siyosiy-mafkuraviy, kommunikativ va iqtisodiy omillarga ajratiladi. O'zbek tilidagi g'aznachilik terminologik maydoni umumiste'moldagi leksika va boshqa terminologik maydon nominatsiyalari bilan integrativ jarayonda ishtirok etadi. Shu ma'noda uning bazaviy asosini o'zga tillardan o'zlashgan nominatsiyalar, shuningdek, birlamchi kontaminatsiya orqali o'zlashgan terminlar tashkil qiladi. Terminosfera, terminosistemaga oid turli fikrlarning tahliliga asoslanib, biz tadqiqotda ilk bor g'aznachilik terminologik maydonining strukturasi quyidagi shaklda ishlab chiqdik (1-rasmga qarang).

G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliya-iqtisod terminlari terminologik birliklar, tarmoqlararo va sohalararo o'zaro aloqador bo'lib, bir-biri bilan intensiv

munosabatga kirishadi va o‘zaro kesishadigan, chastotali xarakterga egadir. Xususan, unda yaxlit holda terminotizim yadrosida g‘aznachilik terminosistemi o‘rin oladi. G‘aznachilik terminologiyasining semantik maydoni tarkibiga terminosistema va umumiste‘mol leksikasi chegarasida (periferiyasida) termin birliklar joylashgan. Shuningdek, g‘aznachilik terminologik maydonining periferiyasini hosil qiladigan maxsus nominativ birliklar (Sof g‘aznachilik terminosferasi, Byudjet hisobi terminosferasi (G‘aznachilik asosida ko‘p sonli byudjet tag tizimlari mavjudligi bois tanlangan), (G‘aznachilik tarmoq terminlari) o‘rin oladi. G‘aznachilik terminologiyasining semantik maydonini chegaradosh hududini hosil qiladigan, aynan g‘aznachilik terminlarga nisbatan qo‘yiladigan talablarga to‘laqonli javob bera olmaydigan boshqa maxsus nominativ birliklar: ixtisoslikka oid bo‘lmagan leksika, moliya-iqtisodga oid bo‘lmagan terminotizim kiradi.

Terminosistemalarning shakllanish va taraqqiy etish jarayonini o‘rganishda, terminologik birliklarning leksik-semantik, struktur-semantik, derivatsion xususiyatlarini tavsiflashda, ularni tartibga solish va me‘yorlashtirishda, umuman, qiyosiy, chog‘ishtirmayo‘sinda lingvistik tahlilini amalga oshirishda qiziqish uyg‘otadi. Shunday qilib, terminologiya masalasiga turli nuqtayi nazar va qarashlar mavjud bo‘lsa-da, u umumleksikaning tarkibiy qismi va leksikologiya tarkibida kichik fan sifatida shakllanib ulgurgan. Vaholanki, jamiyatning zamonaviy hayot tarzini, ishlab chiqarish, ta‘lim, ilm-fan, texnikaning rivojlanishini terminlar va terminologiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunonchi, bu fan terminlarning kelib chiqishi, ularning qo‘llanilish mezonlari va tamoyillari, qaysi semantik guruhga daxldorligi, o‘zlashma qatlami, ko‘p ma‘noliligi yoxud bir ma‘noga moyilligi, tasniflari, qo‘llanish sohalari, terminologiyada sodir bo‘ladigan determinologizatsiya va terminologizatsiya kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.


Umuman, moliya-iqtisod tizimi, xususan, g‘aznachilik kichik tizimi terminlarini ikki, uch (ingliz va o‘zbek, o‘zbek va rus, o‘zbek, ingliz va rus) til materiali asosida chog‘ishtirib tadqiq qilish orqali har bir tilning ahamiyatliligi va terminologik birliklarning ma‘no jihatdan o‘ziga xosliklarini tavsiflovchi nyuanslari, chog‘ishtirilayotgan tillarning xususiyatlari quyidagi nazariy materiallar asosida aniqlanadi va ilmiy tahlil qilinadi.

Ingliz tili g‘aznachilik sohasida qo‘llanadigan moliya-iqtisod terminlari

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, g‘aznachilikning kelib chiqishi uzoq davrni o‘z ichiga olib, dastlabki kurtaklari qadimgi Rim imperiyasi hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Mamlakat rivoji uchun, avvalo, davlat g‘aznasi va uning hisob-kitob masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘sha davrning tarixiy solnomalarida yozilishicha, g‘aznaning ikki turi mavjud bo‘lgan. Masalan, *imperator* qo‘l ostida boshqarilgan g‘azna – *fiscus*, *fisk*, *Senat* boshqaruvidagi g‘azna esa *aerarium*, *erarium* nomi bilan yuritilgan. *Fisk* (казна, g‘azna) lot. *savat*, *karmon*. *Erariy* (казна, g‘azna) lot. *aes*: *mis*, *bronza*; *tanga*, *pul*; *qimmatli*, *qiymati baland*; *mukofot* ma‘nolarini anglatadi.

1-rasm.

G'aznachilik terminologiyasining semantik maydoni



IX asrda Angliyaning vujudga kelishi, XI asrda uning normandlar hukmronligi ostida bo'lishi g'aznachilik rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Xususan, dastlab feodallardan soliqlarni yig'ish orqali davlat g'aznasi shakllanib, asrlar davomida bu tizim izchillashib bordi. XVIII asrda Angliyada g'aznachilik tizimi yanada mukammallashib, o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etgan va bu davrlarda g'azna sohasiga oid quyidagi terminlarni uchratish mumkin: *storehouse* (g'azna), *treasurer* (g'aznachi), *truchman* (dallol), *interpreter* (t+ilmoch), *czar* (shoh).

Angliyada *exchequer* leksemi g'aznachilik vujudga kelgan paytda moliya ishlari bo'yicha mas'ul shaxsga nisbatan qo'llanilgan. Normandlar hukmronligida bu muassasa ikki qismga bo'lingan: (1) *treasury* monarx topshirig'i bilan pullarni yig'ish va to'lov ishlari bilan shug'ullangan; (2) *exchequer* esa ikki yuqori va quyi palatadan iborat bo'lgan. Quyi palata mablag' yig'imiga mas'ul bo'lib, bevosita g'azna bilan shug'ullangan. Yuqori palata esa sudlov organi hisoblanib, g'azna va kirm masalalariga oid ishlar bilan band bo'lgan.

Umuman olganda, Angliya tarixining o'rta asrlar davrida fransuz, lotin va ingliz tiliga oid moliya-iqtisod terminlari yaxlit holda qo'llanilgan. Davrning o'ziga xosligi, zamon va hukmdorlarning o'zgarib turishi g'aznachilik terminlarining turli shaklda qo'llanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ilk o'rta asr an'analari asosida qirol saroyi va saroy huzuridagi muassasalarni nomlash hamda ta'riflash uchun lotin terminlaridan foydalanilgan.

G'azna haqidagi ayrim ma'lumotlar G.A. Nikolayevaning inglizcha-ruscha tarixiy lug'atida ham uchraydi. Muallif qo'llagan g'azna terminlari o'rta asrlarda keng

iste'molda ishlatilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham ishlatiladi. Masalan: *treasury* – *princely treasures*, *казна* – *государственная казна*, *g'azna* – *davlat g'aznasi*, *treate(y)* – *непезговоры*, *muzokaralar* [Nikolayeva, 1995; 464].

Ingliz tili moliya terminologiyasi o'z va o'zlashma qatlamga asoslanadi. Masalan, I.Y. Bulgakova "*contract*" va "*agreement*" terminlari misolida ingliz, boshqa roman-german tillariga o'zlashma so'zlarning kirib kelish jarayonini tavsiflaydi [Bulgakova, 2010]. "Kontrakt termini o'zining dominant ma'nosiga ko'ra kelishuvchi tomonlarning ikki tomonlama majburiyatlarini aks ettiradigan shartnoma, bitim sanaladi", – deb yozadi muallif. U XIV asrda majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash yoki ularni noto'g'ri talqin qilishning oldini olish uchun shartlarni yozma shaklda aks ettirish zarurati tufayli amalga oshirilgan jarayon bo'lib, qadimgi Rim davridan to hozirgi kungacha dunyo amaliyotida tobora keng tarqalgan. "Contract" leksemasi *contractus*, *contrahere* – *birlashtirish*, *rozi bo'lmoq*, *kim bilandir shartnoma tuzmoq fe'llari*, *con* – *bilan*, *birga* prefiksi va *trahere* – *olmoq*, *cho'zmoq* (*uzaytirmoq*), *qiziqtirmoq* fe'li asosida hosil bo'lgan, keyinchalik bir guruh terminlarning yasalishi uchun yadro vazifasini o'tagan. O'rta asrlarda lotin tili ruhoniylar, shifokorlar, olimlar, yuristlar uchun funksional til vazifasini bajarganini hisobga olsak, ingliz va Yevropa tillari uchun lotincha o'zlashmalarning ko'pligi tabiiy holdir.

Fransuzcha o'zlashmalar ingliz tiliga normand dialekti va fransuz adabiy tilidan XV asrdan boshlab kirib kelgani uchun ingliz tili g'azna terminologiyasidagi o'zlashmalarning eng ko'pi lotin, fransuz tillaridan o'tgan [Brunner, 2003; 115]. Masalan, g'aznachilik sohasida qo'llanadigan moliya-iqtisod terminlarining katta qismi lotin, fransuz tillariga oid yoki fransuz tili orqali o'zlashgan lotincha so'zlardir: *default* (*defolt*), *tranche* (*trانش*), *capital* (*kapital*), *budget* (*byudjet*), *tax* (*soliq*), *commerce* (*kommersiya*, *tijorat*), *deficit* (*defitsit*, *kamomad*), *arbitrage* (*arbitraj*) *finance* (*moliya*), *deposit* (*depozit*), *bureaude change* (*ayirboshlash shoxobchasi*), *bordereau* (*ro'yxat*), *bordero* (*batafsil ro'yxat*, *ayniqsa*, *hujjatlar* yoki *qimmatbaho qog'ozlar ro'yxati*).

Lotin va grek tillaridan ingliz tiliga: *audit* (*audit*), *analysis* (*analiz*, *tahlil*), *auction* (*auksion*) *coalition* (*koalitsiya*), *segregation* (*mijoz operatsiyalari bo'yicha bo'linish*), *commision* (*kommisiya*), *capital* (*kapital*), *deposit* (*depozit*), *deficit* (*kamomad*), *deflation* (*deflyatsiya*), *dividend* (*dividend*), *debit* (*debit*), *economy* (*ekonomika*, *iqtisod*), *emission* (*emissiya*), *export* (*eksport*) so'zlari kirib kelgan.

Ingliz tilida so'z yasallishining g'aznachilik terminlari materiali asosida tahlili, eng avvalo, *affiksatsiya* usuli yordamida amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin. Affiksalar morfemalar o'zakka nisbatan joylashish nuqtayi nazaridan uch turga bo'linadi: *prefiksalar*, *postfiksalar* va *infiksalar* morfemalar. So'zning o'zi bilan tanish bo'lgan professional tarjimonlar ulardan yasalgan so'zlarni tushunib, lug'at yordamisiz ham tarjima ekvivalenti (muqobili)ni topa oladi, zero lug'atga barcha zarur tushunchalarni kiritishning imkoni mavjud emas.

Ingliz tilidagi g'aznachilik sohasidagi moliya-iqtisod terminlari asosan quydagi usullar bilan yasaladi:

1. *Affiksatsiya*. Affiksatsiya o'zakka affiks qo'shilishi bilan so'z yasallish usuli

bo‘lib, u, odatda, o‘zak morfemaga qo‘shiluvchi shakliy morfema sifatida tasniflanadi. So‘z yasashda affiksatsiya usuli ommabop hisoblanadi. Affikslar yordamida so‘z yasash usuli morfologik usulga, yarim affikslar usuli esa leksik-morfologik usulga xosdir. Affikslar negizga qo‘shilib, so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish maqsadida qo‘llanadi.

en + cash (naqd) = encash (naqdlashtir)moq;

ac + count (hisoblamog) = account (bankdagi hisob (raqami));

al + location (joylashish o‘rni) = allocation (mablag‘larni) taqsimlash;

in + payment (haq to‘lash) = inpayment (to‘lov, badal, vzos);

re + insurance (sug‘urta) = reinsurance (qayta sug‘urtalamog);

– *ment – arrangement, assessment, assignment, endorsement, agreement, investment, judgement, divestment*;

– *ness, -less – bearishness; cashless*;

– *ir, – irrevocable, irrevocable letter of credit, irrevocable confirmed credit*,

– *able – receivable, negotiable, negotiable, marketable, barterable*.

2. So‘zlarni qo‘shish va affiksatsiya usuli hamda asoslarni yordamchi so‘zlar bilan birlashtirish, shuningdek, o‘zakni grafik komponent bilan birlashtirish yo‘li bilan terminlar yasash:

Budget-priced (arzon narxli); stockholder (aksioner); co-fiduciary (birgalikda vasiylik qiluvchi shaxs); book-keep (buxgalterlik kitoblarini yuritish); comeback (qaytarib berish); custom-house (bojxona); extra-budgetary (byudjet usti); index-linking (indeksatsiya, indeksatsiyalash); grant-element (integral ko‘rsatkich) index-tracking (indeksni kuzatish); rate-sensitive (assets) (foiz stavkasiga sezgir aktivlar)); on-budget (byudjet(ga oid), byudjetga kiritila(yot)gan); off-budget (byudjetdan tashqari); spoon-fed (dotatsiyadagi); value-added (tax) (qo‘shicha qiymat solig‘i); cash-and-carry (xaridni uyga eltib berish shartisiz naqd pulga sotish); taking-over (obyekt qabul qilinganligi haqida guvohnoma); currency change-over (valyutaning oltin tarkibi); blackmail (tovlamachilik).

3. *Konversiya* (jumladan, fe‘llar substantivatsiyasi (otlashishi). Ingliz tilida konversiya usulida so‘z yasash an‘anaviy va keng tarqalgan usullardan biri hisoblanib, unda so‘z semalari paradigmasi so‘z yasovchi vosita sifatida xizmat qilib, so‘zlarning bir turkumdan boshqa turkumga o‘tishi va ushbu jarayonda so‘zlarning semantikasida hech qanday o‘zgarish yuz bermaydi. G‘aznachilik sohasida ishlatiladigan terminlar konversiya jarayonida asosan fe‘l terminlar, ot terminlarga aylanadi. Masalan:

– *to ask* (so‘ramog) – *ask* (qimmatbaho qog‘oz yoki boshqa tovarning sotuvchi tomonidan taklif qilinayotgan narxi, taklif narxi; sotuvga talabnoma narxi (birja yoki boshqa uyushtirilgan bozorda faoliyat ko‘rsatayotgan operator qimmatbaho qog‘oz yoki boshqa tovarni sotishga tayyor bo‘lgan ommaviy e‘lon qilingan narx);

– *to bid* (narx taklif qilmoq) – *bid* (qimmatbaho qog‘oz yoki boshqa tovar xaridor tomonidan taklif qilingan narx, talab narxi; xaridlarga talabnoma narxi);

– *to cut* (kesmoq, qisqartirmog) – *cut* (qisqartirish).

4. *Terminologik birikmalar* – ko‘p komponentli, alohida rasmiylashtirilgan, semantik jihatdan yaxlit, ikki, uch yoki undan ortiq terminologik komponentni

qo'shish yo'li bilan yasalgan birikmalar. Misol uchun: *tender offer* (*tender taklifi*); *stock trust certificate* (*ishonch asosidagi aksiyadorlik guvohnomasi*); *treasury certificate* (*xazina guvohnomasi*); *asset management* (*aktivlarni boshqarish*); *bids-and-offers* (*savdolarining aukcion (kim oshdi) tizimida narx takliflari va talablari*); *budget consolidation* (*byudjetlarni konsolidatsiyalash*); *central bank* (*markaziy bank*); *commodity (exchange)* (*tovar birjasi*); *consumer price index* (*iste'mol narxlari indeksi*); *debt management* (*qarzni boshqarish*); *exempt income* (*soliq tortishdan ozod (qilingan) daromad*); *federal budget* (*federal byudjet*).

Shunday qilib, ingliz tili g'aznachilik (umuman, moliya-iqtisod sohasi) terminlarining hosil bo'lishi, vujudga kelishi, bir tomondan yangi tushunchalar, ma'nolar, mazmunlar yuzaga kelishi munosabati bilan yangi terminlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan ularni jamiyat, davlat, davlatlararo munosabatlarda qo'llanish sohaslarini kengaytirishga xizmat qiladi. Uchinchi tomondan esa, so'z yasash usullarini termin hosil qilish usullari bilan, ya'ni derivatologiya, leksika va semantika bilan uzviy bog'laydi.

O'zbek tili g'aznachilik sohasida qo'llanadigan moliya-iqtisod terminlari

O'zbekistonda g'aznachilik maxsus vakolatli moliyaviy tashkilot sifatida davlat moliya-iqtisod infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib boradi. O'zbek tili g'aznachilik terminologiyasi turli tarixiy davrlarda davlat tomonidan mazkur tashkilotga yuklatilgan vazifalarga mos ravishda shakllanish va rivojlanishning turli-tuman tadrijiy bosqichlarini "boshidan kechirgan". Masalan, O'rta asrlarda arab olamida g'aznachilik muassasasi ma'lum ma'noda hukmdor saroyiga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Turli masalalar bo'yicha maslahatchilar va maxsus vakolatga ega nozirlardan tarkib topgan. Shu tariqa g'aznaning hisob-kitobi yuritilgan hisob va nazorat idorasi sifatida xizmat qilgan sarf-xarajatlar idorasi bo'lgan [Omel'chenko, 2000].

O'zbek tili g'aznachilik sohasidagi moliya-iqtisod terminlarining qo'llanishi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", shayx Sulaymon Buxoriyning "Bado'-l-ul lug'at", Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy", "Hayrat ul-abror", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa ko'pgina mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topgan.

Moliya va iqtisod sohasiga oid terminologiyaning xususiyatlari borasidagi tadqiqotlar sirasiga H.A. Dadabayev [Dadabayev, 1991], Q.M. Musayev [Musayev va boshq., 1998], O.O. Olimjonov [Olimjonov va boshq., 1996], Ch.S. Abdullayeva [Abdullayeva, 2000], O.S. Axmedov [Axmedov, 2016] va boshqalarning ishlarini alohida qayd qilish mumkin.

O'zbek tili moliya-iqtisod terminologiyasining g'aznachilik sohasida amal qiluvchi terminlarining o'rganilishida tipologik kontrast til tizimlarining derivatsion xususiyatlarini chog'ishtirish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu, albatta, lug'atlarni yaratish ehtiyojining dolzarbligi bilan izohlanadi. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan ushbu leksik qatlamning faollashuvi O'zbekistonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning in'ikosi hisoblanadi. Tilning leksik sistemasidagi

mazkur faol qatlam globallashuv jarayonlarida mamlakat boshidan kechirayotgan iqtisodiy o'sishdan ham dalolat beradi.

Bugungi kunda o'zbek moliya-iqtisod, g'aznachilik terminologiyasi faol shakllanish, rivojlanish bosqichida bo'lgani bois u yetarli darajada tizimlashtirilmagan va tartibga solinmagan. Bu esa ba'zi tushunchalarning muqobili mavjud emasligi, sohaga doir lug'atlarning kam ekanligidan darak beradi. Shu bilan birga, o'zlashgan tushunchalar ko'pincha o'zbek tilidagi muqobili bilan mos kelmaydi. Masalan, "valyuta", "kredit", "fors-major", "aksiya", "balans", "birja" terminlari. Shuning uchun ham bunday tushunchalarning umumadabiy til va maxsus yaratilayotgan lug'atlarda ma'nolarining batafsil izohi, definitsiyasini aniqlashtirish uchun mos keluvchi ma'nosini dominant tarzda qayd etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, o'zbek g'aznachilik terminologiyasining o'z qatlami tuzilishi jihatidan quyidagi tipdagi termin birliklari bilan ifodalanadi:

1. *Bir so'zdan iborat birliklar* – bir morfologik elementdan tarkib topgan, asosan arab yoki fors tillaridan o'zlashgan. Masalan: *daromad* – *income* – доход; *narx* – *cost* – цена; *soliq* – *tax* – налог; *ulush* – *quota* – доля, квота; *boj* – *dues* – пошлина; *mablag'* – *budget* – бюджет.

2. *Suffikslar orqali hosil qilingan birliklar*. Masalan: *akseptlash* – *принимающий* – *accepting*; *belgilash* – *назначение* – *assignment*; *shartnoma* – *договор, соглашение* – *agreement*; *muvofiqlik* – *согласие, соответствие* – *accordance*; *moliyachi* – *финансист* – *financier*; *qonunchilik* – *законодательство* – *legislation*; *bankrotlik* – *банкротство* – *bankruptcy*; *taqiqlash* – *запретить* – *banned*.

3. *Sintaktik-morfologik usul bilan hosil qilingan birliklar*. Masalan:

A. So'zlarni qo'shish. O'zbek tilida so'zlarni qo'shish orqali hosil qilingan leksemalarni qo'llanishiga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

– qo'shimchalar (affikslar)siz o'zaklarni qo'shish: *hisobraqam* – *расчетный счет*; *hisobvarag'i* – *счет* – *account*;

– grafik komponent yordamida qo'shish: *hisob-kitob* – *бухгалтерский, sarf-xarajat* – *затраты*.

B. Ikki, uch yoki undan ortiq terminologik komponentlarni qo'shish orqali hosil qilingan so'z birikmalari: *byudjet tizimi* – *бюджетная система*; *byudjet davri* – *бюджетный период*; *byudjet jarayoni* – *бюджетная сфера*; *byudjet intizomi* – *бюджетная дисциплина*; *byudjet nazorati* – *контроль бюджета*; *byudjet huquqi* – *бюджетное право*; *solisqlarni va tushumlarni yig'ish, daromadlar resurslari taqsimlash, limitlar belgilash, moliyaviy rejalashtirish, byudjet xarajatlari smetasi, byudjetning kassali ijrosi, pul mablag'lari, Yagona G'azna hisobvarag'i*.

D. Abbreviaturalar: *XK* – *xususiy korxona* – *частное предприятие*; *STIR* – *soliq to'lovchining identifikatsiya raqami*; *IHH* – *индивидуальный налоговый номер*; *ЧП* – *частный предприниматель* – *xususiy tadbirkor*; *НБУ* – *национальный банк Узбекистана* – *O'zbekiston milliy banki*; *QQS* – *qo'shimcha qiymat solig'i*; *MCHJ* – *ma'suliyati cheklangan jamiyat*.

O'zbek tili moliya-iqtisod terminologiyasining ajralmas qismi bo'lgan g'aznachilik terminlari derivatsiyasining o'ziga xosliklari ularning qo'llanishiga ham

ta'sir ko'rsatadi. Bu internatsional va o'zbekcha ekvivalent terminlarning birdek faol qo'llanishida o'z tasdig'ini topdi. Bu holat, ya'ni ekvivalent terminlarning bir vaqtda faolligi mazkur soha terminologiyasi o'z shakllanish bosqichini boshidan o'tkazib bo'lgan, tizimliliigi va barqarorligi bilan xarakterlanuvchi ingliz va rus tillariga deyarli xos emas.

Rus tili g'aznachilik sohasida qo'llanadigan moliya-iqtisod terminlari

Rossiya tarixida g'aznachilik terminining vujudga kelishi ilk bor 1328-yil Ivan Kalita hukmronligi davriga to'g'ri kelib, bunda "казна" oltin va kumush taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar, buyum hamda matolar saqlanuvchi ombor sifatida ishlatilgan. G'aznachi lavozimi – князь yoki бояр hukumatning mansabdor shaxsi, князь g'azna xazinasining saqlovchisi hisoblangan.

Davlat taraqqiy etishi va kuchayishi bevosita g'azna hajmining kattalashishiga, bu esa pul saqlanishini qo'shimcha ravishda nazorat qilishga olib keladi. Ivan III (1462-1505) hukmronligi davrida markazlashgan davlatning vujudga kelishi davlat strukturasi maqomiga ega bo'lgan g'aznachilik xizmatining kengayishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, "казна" (g'azna) tizimini yanada izchillashishi va g'azna xizmatining vujudga kelishiga asos bo'ldi. Quyidagi terminlar mazkur yillarda g'aznachilikda faol qo'llanilgan. Masalan: казначей – видный дворовый чин; казначей-должностного лица княжеской или боярской администрации, хранителя княжеских ценностей.

Terminologik leksika jamiyat iqtisodiy mavqeyining har bir aniq davrdagi taraqqiyotidagi madaniy-tarixiy ko'rsatkichlarni aks ettiradi. V.Dalyaning 1881-yilda chop etilgan izohli lug'atida g'azna, g'aznachi, g'aznachilik so'zlariga quyidagicha izoh berilgan: казна – «государевы или государственные суммы, богатства, доходы, имущества»; казначей – «чиновник, служитель, завъдывающий деньгами, приходомъ и расходомъ, наличностью», казначейство – «присутственное место, завъдывающее приходомъ, хранениемъ и расходом казны» [Boduen de Kurtene, 1905; 74]; G'azna – hukmdorning yoki davlatning umumiy mablag'i, boyligi, daromadi; g'aznachi – kirim-chiqim, pullar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs, xizmatchi, g'aznachilik – g'azna kirim-chiqimlar, pullarni saqlash xizmati.

To'plangan ilmiy ma'lumotlarga asosan rus tili g'aznachilik sohasida moliya-iqtisodga oid tarixiy terminlarni ko'p qo'llanilganligini aniqladik. Quyidagi terminlar fikrimizni tasdiqlaydi: хранитель денег, придворный, думный чин, совокупность ценностей, камер-коллегия, коллегия казенных сборов, итатс-коллегия, ревизион-коллегия, земский камерир, земские комиссары, рентерии, рентмейстер, триа замка, уездный казначей, казенной палата, княжьи мужи, кабала, гривны, ярмарка va boshq.

Yuqorida qayd etilgan ba'zi termin-leksemalar davr o'tishi bilan iste'moldan chiqib, hozirgi kunda arxaizmga aylanganligini quyidagi terminlar bilan izohlash mumkin: придворный, думный чин, земский камерир, земские комиссары, триа замка, уездный казначей, княжьи мужи, кабала, гривн va h.k.

Zamonaviy rus g'aznachilik terminologiyasi ham o'ziga xos ekstralingvistik omillar, tarixiy voqeliklar ta'siri ostida shakllangan. XVII asrda Yevropa madaniyatiga

integratsiyalashuv jarayonlari sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, rus tilida ham umumiy iqtisodiy, barcha tillar uchun universal bo'lgan internatsional “*бартер*”, “*субсидия*”, “*инфляция*”, “*банк*”, “*финансы*”, “*конфиденциальность*” kabi ko'pgina terminlar kirib kelganligini kuzatamiz.

Biroq moliya-iqtisod terminologiyasining katta qismi Rossiyada XX asrning 90-yillarida bozor munosabatlarining joriy qilinishi va global moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi munosabati bilan chet tillardan, asosan, ingliz tilidan o'zlashgan moliyaviy tushunchalar bilan bog'liq yangi tushunchalar shakllangan. Y.N. Sidorenko o'z tadqiqotida qayd qilib o'tganidek, so'z o'zlashish jarayonini termin yasalishi bilan bir qatorda o'rganish lingvistik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqdir. Zero, “ko'plab terminlar rus tiliga ingliz tilidan o'zlashadi” [Sidorenko, 2005; 3].

Ingliz tili moliya-iqtisod terminologiyasining o'zlashtirilishi, u asosida ko'plab yangi termin derivantlarning hosil bo'lishi rus tili moliya-iqtisod terminologiyasining kengayishi va boyishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Bu masala M.V. Kitaygorodskaya [Kitaygorodskaya, 1996], A.P. Okuneva [Okuneva, 1991], S.V. Podchasova [Podchasova, 1994], Y.V. Senko [Sen'ko, 1994]larning ishida o'z ifodasini topgan. Masalan, S.V. Podchasovaning ishida chet tilidan so'zlarning o'zlashtirilishi hamda ular asosida rus tili so'z yasash vositalari yordamida yangi birliklarni yaratish jarayoni ko'rib chiqilgani tahlil qilingan.

G'aznachilik sohasida amal qiluvchi rus tiliga xos suffikslar samarali usul bo'lib, uning yordamida yangi ma'noga ega bo'lgan yangi shakl (derivat) hosil bo'ladi. O'zakning suffiks bilan birlashtirilishi esa maxsus axborot, yangi semantik mazmunga ega bo'lgan moliya-iqtisod terminlarini hosil qiladi. Shunday qilib, -ист, -ик, -чик, -щик, -ер, -ор, -ир suffikslari g'aznachilik sohasida “shaxs” bilan bog'liq tushunchalar kategoriyasini ifodalaydi va lug'atlarda moliya-iqtisod sohasidagi shaxslarni identifikatsiyalovchi “yuridik shaxs”, “jismoniy shaxs” kabi terminlar orqali qayd qilinadi. Masalan: *дебитор* (*debitchi*), *банкир* (*bankir*), *пенсионер* (*nafqaqaxo'r*), *налогоплательщик* (*soliq to'lovchi*), *специалист* (*mutaxassis*), *финансист* (*moliyachi*), *налоговик* (*soliqchi*), *экономист* (*iqtisodchi*), *контролер* (*nazoratchi*).

Y.S. Kubryakova o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, yetarli darajada tartibga solingan terminologiya qaysi ilmiy va kasbiy faoliyat sohalarini aks ettirishidan qat'i nazar, yangi tushunchalarni ifoda etishida terminlarning yasash modellari terminologik birliklarini unifikatsiya qilish zaruratini ko'rsatishi mumkin. Mazkur fikr iqtisodiyot tilining kichik sistemalarida yanada yorqin namoyon bo'ladi [Kubryakova, 1988; 145].

Demak, rus tili g'aznachilik terminologiyasida aksariyat terminlar o'zlashgan terminologik birlikning o'zagiga, ba'zilar esa muayyan affikslarni qo'shish orqali hosil qilinadi. Mazkur usul rus tili uchun nisbatan xos bo'lib, o'zining faolligi bilan ajalarib turadi. Terminlarning o'zlashtirilishi va retsiyent tilning ichki qonuniyatlariga moslashishi, affiksatsiya usuli yordamida yasalgan yangi terminlarning hosil bo'lishi rus tili g'aznachilik sohasidagi moliya-iqtisod terminlarining sezilarli darajada

oshishiga turtki bo'lishda.

TADQIQOT METODLARI

Hozirgi o'zbek tilining moliya-iqtisod terminologiyasini tadqiq qilishda ingliz, rus tillarining shu sohaga oid terminologiyasi bilan chog'ishtirish zarurati mavjud. Moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichida mavjud bo'lgan bank ishi, soliq huquqi, savdo-sotiq, marketing, tashqi iqtisodiy faoliyat singari yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohasi terminologik maydonini tarkibiy qismlarga ajratilishi munosabati bilan maxsus leksikaga oid terminlarning lug'atlarini yaratish, g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliya-iqtisod terminlarining poligrafik va elektron formatdagi bilingval lug'atlarini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois maqolada ayni vazifalarni samarali bajarish hamda ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini batafsil ochib berishda qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), komponent tahlil, statistik tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Xususan, g'aznachilik terminlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotimiz doirasida terminologik tizimda kechayotgan lingvistik hodisalarni iqtisodiyotning tarkibiy qismi hisoblangan g'aznachilik sohasida qo'llanish tamoyillariga muvofiq uch tilli (ingliz, o'zbek va rus tillari) chog'ishtirma tahlildan foydalandik. Chog'ishtirma metodning tadqiqotimiz uchun muhimligi til universalialarini tipologik yondashuv nuqtayi nazardan o'rganish bilan izohlanadi. Tipologiya turli tarkibga ega ko'plab obyektlar (obyektlar to'plami) bilan ish ko'radi va bu to'plamlarni tiplarga ajratish, tartiblashtirgan holda tavsiflash hamda tasniflash vazifasini hal qiladi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida termin yasash usullariga ko'ra g'aznachilik sohasidagi moliya-iqtisod terminlarini tasniflash quyidagi asosiy qoidalarga asoslanishi dalillandi: 1) fan yoki jamiyatning ijtimoiy faoliyat sohalariga ko'ra; 2) katta sistema (katta fan) ichidagi kichik sistemalar (kichik fanlar); 3) terminlar ifodalaydigan tushunchalarga ko'ra; 4) termin strukturasiga ko'ra; 5) termin yasash usullariga ko'ra; 6) asl milliy terminlar (o'zbek, ingliz yoki rus tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan terminlar)ga ko'ra; 7) o'zlashma terminlar: a) lotin tilidan; b) grek tilidan; d) ingliz va boshqa zamonaviy roman-german tillaridan; e) rus tilidan yoki rus tili orqali; f) arab tilidan; g) fors tilidan kirib kelgan o'zlashma terminlarga ko'ra; 8) gibrid terminlar (ona tilidagi, o'zlashma terminlarning o'zak yoki negizi va boshqalarni qo'shish usuli bilan yasalgan terminlar)ga ko'ra.

Tillarning zamonaviy terminologik bazalari asl milliy va o'zlashma terminlardan tarkib topadi. Ikkinchilari (interterminlar) XX–XXI asr boshlarida nisbatan faol, hatto mazmunijihatdan ham, qo'llanish chastotasiga ko'ra asl milliy terminlar bilan parallel holda qo'llaniladi, aksariyat hollarda esa hatto yetakchilik ham qilmoqda.

Bu kabi holat jamiyatning har bir sohasi, har bir fan sohasi terminologiyasini chog'ishtirib o'rganish va tavsiflash zaruratini yuzaga keltirishga sabab bo'ladi. Bu turdagi ilmiy-tadqiqot natijalari birinchi til uchun ham, chog'ishtirilayotgan til uchun ham, umuman, terminshunoslik fani uchun ham foydalidir.

Shuning uchun ham ingliz, o'zbek va rus tillari moliya-iqtisod terminlari,

ularning g'aznachilik sohasida qo'llanilishi, chog'ishtirma tahlili, tavsiflash masalasi mazkur tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqdi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ingliz va rus tillaridagi g'aznachilik sohasidagi moliya-iqtisod terminlarining chog'ishtirma tahlili

Mutaxassis tomonidan terminologiya sohasidagi bilimlarning to'g'ri o'zlashtirilishi va savodli qo'llanishi tilshunoslikni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ingliz va rus tillaridagi g'aznachilik sohasida qo'llaniluvchi maxsus bazaviy terminlarning chog'ishtirilishi, o'zaro qardosh bo'lmagan xalqlarning tafakkur mahsulini ochib beradi. Bu zamonaviy ingliz va rus tillarida o'z ifodasini topgan qiziq bir o'ziga xoslik belgisini aniqlashtiradi. Misol uchun, *treasury* – *казначейство* (g'aznachilik) va *treasurer* – *казначей* (g'aznachi) terminlari *treasure* – *казна* (g'azna) bazaviy terminidan hosil bo'lgan. Etimologik lug'atlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, *treasure* – *казна* (g'azna) termini o'zaro chog'ishtirilayotgan tillar uchun umumiy bo'lgan tushunchani anglatgan, ya'ni *xazina* katta qiymatga ega bo'lgan va mulkdorning moliyaviy-ijtimoiy mavqeyini belgilab beruvchi predmetlar jamlanmasi sifatida e'tirof etilgan. “*Казна*” (g'azna) tushunchasi ingliz va rus tillaridagi etimologik lug'atlarda hamda tarixiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan.

E'tiborlisi shundaki, qadimgi ingliz tilida ham, qadimgi rus tillarida ham *treasure* – *казна* terminlari o'zlashma bo'lib (ingliz tiliga eski fransuz tili orqali lotin tilidan, rus tiliga turkiy tillar vositasida arab tilidan o'zlashgan), o'zining konseptual va semantik “*muayyan qimmatli narsa*” ma'nosini saqlagan. Har ikkala tilda ham barqarorlashgan faollashgan *treasure* – *казна* terminlari ularning jamiyat kundalik hayotiga kirib borish faolligi darajasiga ko'ra yangi terminlarning yasalishiga asos bo'ldi. Masalan, *xazina* hajmining kengayib borishi uni nazorat qiluvchi, kirim-chiqimlar hisobini yurituvchi vakolatga ega bo'lgan insonlarga, *xazinani* saqlash uchun maxsus binolarga ehtiyoj yuzaga kelgan. Mazkur yangi tushunchalar ingliz va rus tillarida suffiksali usul yordamida vujudga kelgan: *treasure* (n.) – *treasurer* – *treasury* – *treasure* (adj.) – *казна* – *казна-ч-ей* – *казна-ч-ей-ств-о* – *казна-ч-ей-ск-ий* (*казен-н-ый*).

Chog'ishtirilayotgan tillar tahlili natijasida biz g'aznachilik sohasida qo'llanilayotgan terminlarni turli davrlar mobaynida o'zlashtirilgan terminlarni qo'llanish chastotasidan kelib chiqib quyidagicha guruhladik: *termin neologizmlar*, *termin arxaizmlar* va *faol g'aznachilik terminlaridir*. Hozirgi kunda ingliz, o'zbek va rus tillaridagi g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan termin neologizmlarga misollar (1-jadval):

1-jadval.

G'aznachilik sohasidagi termin neologizmlar

Ingliz tilidagi termin neologizmlar	O'zbek tilidagi termin neologizmlar	Rus tilidagi termin neologizmlar
<i>on call money</i>	<i>kafolatli qarz</i>	<i>заем до востребования</i>
<i>franchising</i>	<i>franchayzing (bozor subyektlari o'rtasidagi munosabat)</i>	<i>франчайзинг (вид отношений между рыночными субъектами)</i>
<i>offshore</i>	<i>оффшорные (erkin vosita)</i>	<i>оффшорные средства (свободный)</i>
<i>dumping</i>	<i>demping (pasayish)</i>	<i>демпинг (снижение,)</i>
<i>demurrage</i>	<i>demeredj (oldindan kelishuv)</i>	<i>демередж (предварительно согласования)</i>
<i>detention</i>	<i>detenshen (yo'qotishlar)</i>	<i>детеншен (убытки за простой судна)</i>
<i>futures</i>	<i>fyuchers (muddatli bitimlar)</i>	<i>фьючерс (вид срочных сделок)</i>

Ingliz, o'zbek va rus tillarida g'aznachilik sohasida ayni kunda qo'llanilmayotgan, ya'ni arxaizmga aylangan terminlardan namunalar (2-jadval):

2-jadval.

G'aznachilik sohasidagi termin istorizmlar

Ingliz tilidagi termin istorizmlar	O'zbek tilidagi termin istorizmlar	Rus tilidagi termin istorizmlar
<i>moneyer</i>	<i>devon tovjih (g'azna xizmatchisi)</i>	<i>княжеская казна</i>
<i>assiento</i>	<i>mustovfiy (moliya vaziri)</i>	<i>гетманская военная казна</i>
<i>mesta</i>	<i>amid ul-mulk (davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri)</i>	<i>казенные двор</i>
<i>tallage</i>	<i>munshiy (devonxona boshlig'i)</i>	<i>счетный приказ</i>
<i>sovereign</i>	<i>peshkant</i>	<i>монетные дела</i>
<i>beau</i>	<i>manol (foyda)</i>	<i>камер-колегия</i>
<i>barons in the exchequer</i>	<i>maxzan (g'azna)</i>	<i>штатс-контора</i>
<i>exchequer</i>	<i>masrif (xarajat)</i>	<i>ревизион-колегия</i>
<i>housekeeper</i>	<i>muzlima</i>	<i>казенная палата</i>
<i>zaparo</i>	<i>daftardor (hujjat yurituvchi)</i>	<i>губернские казначейства</i>

G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan terminlarni ingliz, o'zbek va rus tillarida har xil global iqtisodiy tendensiyalar ta'sirida til tizimida o'ziga xos sof g'aznachilik faol terminlari shakllangan (3-jadval):

3-jadval.

G'aznachilik sohasidagi faol terminlar

Ingliz tili faol g'aznachilik terminlari	O'zbek tili faol g'aznachilik terminlari	Rus tili faol g'aznachilik terminlari
<i>treasury/currency, emission, stock, bond, bill rate, bill</i>	<i>davlat/g'aznasi, byudjeti, qarzi, daromadi, tushumi, majburiyati, kafolati</i>	<i>казначейский(-ая, -ие)/ вексель, сертификат, эмиссия, обязательства, билет, боны</i>

<i>t-bond, tb, t-bill, t-currency, t-stock osppi, (bep)</i>	<i>kassa, g'azna ijrosi</i>	<i>бюджетный/платежи, кредиты, дебиты, внебюджетный фонд, государственный казначейский билет, расходы продажа/покупка ценных бумаг</i>
<i>treasury strategy plan, the office of performance budgeting</i>	<i>yagona g'azna hisobvarag'i</i>	<i>короткий вексель, краткосрочный вексель, вексель на инкассо</i>
<i>secretary of treasury, treasury inspector, deputy secretary of treasury, treasurer, counselor</i>	<i>byudjet/yuqori, quyi, ahvoli mablag'i, tashkiloti, dotatsiyasi, subvensiyasi, prognozi, rejasi, tizimi, monitoringi</i>	<i>бюджет/ консолидированный, федеральный, казначейские сторожа</i>
<i>treasury's bureaus</i>	<i>pul oqimlari, naqd pul, summa, ehtiyoj, emissiya</i>	<i>казначейский акредитив, казначейская должность</i>
<i>internal, external revenue, engraving, printing designs, currency, securities, other official certificates</i>	<i>g'aznachilik sertifikati, g'aznachilik majburiyati, qimmatli qog'ozlar</i>	<i>финансовый контроль, казначейский контроль, казначейский счет</i>

Ingliz tili terminologiyasidagi qat'iy izchillik bevosita g'aznachilik terminosferasi bilan aloqador terminologik birikmalar qatorining shakllanishiga ham zamin yaratgan. Masalan: *Treasury accounts* – moliya vazirligi hisoboti; *Treasury bill (TB, T-bill)* 1) g'aznachilik vekseli (davlat tomonidan o'z xarajatlarini qoplash uchun chiqariladigan qisqa muddatli veksel); 2) (AQSH g'aznachiligi tomonidan chiqarilgan, bir yilgacha muomala muddatiga ega bo'lgan kuponsiz qimmatbaho qog'oz); *Treasury bond (T-bond)* – (uzoq muddatli) g'aznachilik obligatsiyasi (AQSH g'aznachiligi tomonidan chiqarilgan uzoq muddatli qarz qimmatbaho qog'oz); *Treasury Budget* – g'aznachilik byudjeti (hukumat daromad va xarajatlari orasidagi joriy tafovut aks etuvchi har oylik hisobot; uzoq muddatli iqtisodiy prognozlarni amalga oshirishda foydaladi); *Treasury currency* – g'aznachilik pullari (AQSH g'aznachiligi tomonidan chiqarilgan tangalar va qimmatbaho qog'ozlar); *Treasurystock* – g'aznachilik qimmatbaho qog'ozlari (belgilangan daromadga ega bo'lgan davlat qimmatbaho qog'ozlari turi; g'aznachilik tomonidan fond birjasi va bank orqali chiqariladi, muomala muddati odatda 90 kunni tashkil etadi).

Rus tili moliya-iqtisod lug'atlarida "g'aznachilik" termini ishtirok etgan bu kabi barqaror termin birikmalar kam kuzatiladi. Bular, asosan, davlat tashkilotlari nomlaridir: *Казначейство Российской Федерации, федеральное* (Rossiya Federatsiyasi g'aznachiligi, federal) [Rozhdestvenskiy i dr., 2000; 287]. Ingliz va rus tillari g'aznachilik sohasi terminlarining shakllanishidagi eng samarali usullar sifatida so'z o'zlashtirish, kalka va morfologik usullarni qayd etish mumkin. Morfologik usulning ingliz tilida keng tarqalgan ko'rinishlari konversiya va affiksatsiya, rus tilida esa affiksatsiya. Konversiya rus tilida sermahsul emas. Semantik usul ham rus tiliga nisbatan ingliz tili uchun ko'proq xarakterlidir. Bazaviy moliya-iqtisod terminlarini o'zlashtirishda har ikkala til (ingliz va rus) uchun ham asosiy manba lotin tilidir.

Fransuz tilidan o'zlashgan juda ko'p terminlarni ingliz tilida ham, rus tilida ham uchratish mumkin.

O'zbek va rus tillaridagi g'aznachilik terminlarining chog'ishtirma tahlili

Rus va o'zbek tillarining o'zaro aloqasi o'ziga xos madaniy fenomen hisoblanib, rus tili ta'sirida o'zbek tilining maxsus lug'at qatlami boyigan. Hayotiy faoliyatning ko'plab sohalarida o'zbek tilining so'z lug'at boyligi, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'z hamda tushunchalar saqlanib qolgan hamda uzoq vaqtlar mobaynida sayqallanib, rus tilining lug'at boyligi hisobiga yangi bir lug'aviy qatlam shakllandi. Bu esa o'zbek tili lug'atining yanada boyishini ta'minladi. Masalan, o'zbek tilida mavjud tushunchalar bilan parallel ravishda rus tilidan o'zlashgan tushunchalar ham qo'llanilib, sinonim juftliklarni hosil qiladi: *hisobchi* – *бухгалтер*, *me'tor* – *архитектор*, *shifokor* – *доктор*, *talaba* – *студент*, *asab* – *нерв*, *bo'nak* – *аванс*, *taftish* – *ревизия*, *tablag'* – *бюджет*, *mahsulot* – *товар*, *g'azna* – *касса* va boshq.

Mazkur holat til leksikasining tobora boyitilishiga yaqqol misoldir. Ba'zi olimlar rus tilidan o'zlashgan tushunchalarni qachondir obyektiv va subyektiv ijtimoiy omillar tufayli iste'moldan chiqib ketgan yoxud kam qo'llaniladigan bo'lib qolgan o'zbekcha muqobillari bilan almashtirishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan qarama-qarshi fikrlar bildirishgan [Daniyarov, 1993; 8]. Moliya-iqtisod terminologiyasi tahlili barcha o'zlashtirilgan terminologik tushunchalar ma'nosining mukammalligi, shuningdek, retsiyent tilda muqobillari mavjud emasligi hisobiga to'liq almashtirib bo'lmashligini ko'rsatadi.

O'zbek tili ham rus tili singari rivojlangan so'z yasash tizimi bilan xarakterlanadi. Biroq turli til guruhlariga mansublik ularning so'z yasash modellarini tuzish tamoyillaridagi tabiiy farqlarni izohlaydi. Rus tili so'z yasash usuli bo'yicha boshqa tillarga nisbatan keng resurslar hamda boshqa ko'plab leksik birliklarga ega ekanligi bilan farqlanadi. Bu resurslarga suffikslar, prefikslar, postfikslar; prefiks-suffiks, prefiks-postfiks, suffiks-postfiks singari aralash so'z yasash usullari, shuningdek, substantivatsiya, sof birikish, suffikslar yordami bilan bir vaqtda kechuvchi birikish, qo'shilish, abbreviatsiya [Shvedova i dr., 1980; 138-139] kabi so'z yasash hodisalari kiradi. Ayni vaqtda o'zbek tilida ham suffikslar, prefikslar yordamida (kam kuzatiladigan hodisa) so'zlarni qo'shish va abbreviatsiya orqali so'z yasash usullari mavjud bo'lib, biroq flektiv va agglyutinatив tillarning o'zaro kontrastligi (qarama-qarshiligi) hisobiga "suffikslar yordamida" yasalgan termin [Azizov, 1983] ba'zi olimlar nazarida o'zbek tilida farqlanadi.

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyati unda ona tili umumadabiy so'zlari asosida (*Uz+Uz modeli*), rus tili umumadabiy so'zlari va o'zbekcha so'z yasash affikslari (*Uz+Rus* yoki *Rus+Uz modeli*), ruscha-internatsional terminlar hamda o'zbekcha so'z yasash affikslari yordamida (*Uz+RusInt* yoki *RusInt +Uz modeli*) hosil bo'lgan, shuningdek, kam sonli faqat rus yoki ruscha-internatsional terminlar va o'zbekcha so'z yasash affikslaridan tarkib topgan (*Rus+Rus* yoki *RusInt+RusInt modeli*) termin birikmalarining mavjudligidir. Masalan:

1) *Uz+Uz modeli* – *maqsadli jamg'arma*, *yer solig'i*, *bevosita soliq*, *bojxona imtiyozlari*, *moliyaviy nazorat*, *soliq olish*, *yuk yig'imi*, *pul daromadlar*, *tushum*

yig'ish, yagona g'azna hisobvarag'i, moliyaviy rejalashtirish, davlat qarzi, tushum nazorati, g'azna ijrosi;

2) Uz+Rus modeli – *moliya organi, tovar birjasi, kassa aylanmasi, soliq stavkasi, bojxona organlari, byudjet ijrosi, birja bitimi, xarajatlar smetasi, limit belgilash, resursni taqsimlash, byudjet tuzish, byudjet tasnifi;*

3) Uz+RusInt modeli – *yuridik akt, bojxona kodeksi, byudjet davri, identifikatsiya raqami, import boji, elektron to'lovi, auditor tekshiruvi, xarajatlari balansi, kredit beruvchi, xalq banki;*

4) Rus+Rus yoki RusInt+RusInt modeli – *tovar birjasi, tovar oboroti, byudjet krediti, plastik kartochkalar, byudjet smetasi, byudjet dotatsiyasi, byudjet subvensiyasi.*

G'arbning til vositalarini tejash va katta hajmli terminologik birikmalarni qisqartirish usuli orqali shakllangan rus tilining faol ta'siri ostida o'zbek tilida ham mazkur an'ana paydo bo'ldi. Shunday usullar ta'sirida vujudga kelgan abbreviatsiyalar quyidagilarni tavsiflash yoki aks ettirishda xizmat qiladi:

– u yoki bu muassasaning geografik joylashish o'rni yoki faoliyati ko'lamini: AEF – Africa Enterprise Fund – *Afrika Tadbirkorlik Fondi;*

– hujjatlar, qonunlar, bitimlar, shartnomalar imzolangan joy yoki ularning amal qilish zonasi: ECOWAS report – Economic Community of West African States report – *ECOWAS hisoboti, G'arbiy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati hisoboti;*

– rasmiy shaxslarning u yoki bu mamlakat, tashkilot yoki firmaga mansubligi: ECB policy maker – European Central Bank policy maker – *Yevropa Markaziy bankining oliy mansabdor shaxsi;*

– pul birliklarining geografik mansubligi: BGN – Bulgarian lev – *Bolgariya levi;*

– kashfiyotlar, asarlar, normativ hujjatlar, dalolatnomalar (aktlar), standartlar, qonunlar va h.k.larning mualliflari ismlari va familiyalari: DJTA – Dow Jones Utility Average – *jamoatchilik foydalanadigan kompaniyalarning Dou-Jons indeksi;*

– kompaniyalar va firmalar asoschilarining ismlari va familiyalari: C and A – Clemens and August Brenninkmeyer – “C and A” (*erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlarini sotish bo'yicha bir tipdagi do'konlar tarmog'i; C and A Modes; 1841-yilda Gollandiyada asos solingan firma tashkilotchilari ismlarining bosh harflari bo'yicha;*)

– maxsus adabiyotlar va davriy nashrlar chop qilingan joy nomi: C.P.R. – Canadian Patent Report – *Kanada patent-huquqiy jurnali* [Prosvirina, 2015; 106].

Dashtlabki to'rt guruhga kiritilgan terminlar ularning tarkibiga toponimlarni, ya'ni geografik obyekt nomlari: shahar, mamlakat, dunyoning qismlari, millatlar nomlarini kiritish vositasida hosil qilingan. Beshinchi va oltinchi guruhlar eponim nomlarga ega terminlardan tashkil topgan, ular tarkibiga qonunlar, hujjatlar, firma egalarining ism va familiyalari kiritiladi. Shunday qilib, qisqartmalarining toponimik va antroponimik (eponimik) tiplari g'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy til qisqartmalarining asosiy boyish usullari sifatida e'tirof etiladi. Shu tarzda rus tilidan ko'plab terminlar o'zbek moliya-iqtisod terminologiyasiga kirib keldi va retsiptiyent til so'z yasash, shakl yasash xususiyatlariga moslashib, uning grammatik qonuniyatlariga bo'ysunib, til tizimida muqim o'rin egalladi. Yangi yasalgan termin-birikmalar u yoki bu soha faoliyatiga oid terminologik qatlamni to'ldirgan holda

mazkur til uchun xarakterli bo'lib bormoqda.

Ingliz va o'zbek tillaridagi g'aznachilik terminlarining chog'ishtirma tahlili

Bugungi kunda turli tuzilishga ega tillarning chog'ishtirma tadqiqi o'zbek tilshunosligidagi ilmiy ishlar uchun tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tiliga Yevropa tillaridan kirib kelgan o'zlashmalarni o'rganishga yo'naltirilgan zamonaviy tadqiqotlarda o'zlashgan so'z va terminlar tillarning o'zaro munosabati jarayonida o'zbek jamiyati faoliyatining ko'plab sohalarga, jumladan, kundalik turmush tarzidan fan-texnologiyalargacha, qishloq xo'jaligidan tortib, moliyaviy-iqtisodiy va siyosiy hayotgacha kirib kelganligi ta'kidlanadi.

G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning sohalararo tarmoqlanish bo'yicha quyidagi terminosistemalari shakllangan (4-jadval). O'zbek tili lug'at boyligining rivojlanishi va kengayishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar davomida kechgan lingvomadaniy, ya'ni o'xshash va farqli tillar hamda madaniyatlarning ta'siri tufayli hozirgi o'zbek tili moliya-iqtisod terminlarining etimologik jihatdan turlicha asosligi va xilma-xilligi munosabati bilan O'zbekiston g'aznachiligi terminosistemasini chog'ishtirma aspektda tahlil qilib, hozirgi o'zbek tili o'z rivojlanishida boshidan kechirgan dinamik bosqichning, ayniqsa, terminosistemaning shakllanish va boyib borish jarayonlarining guvohiga aylanamiz.

4-jadval.

G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan intertermin namunalari

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
<i>agreement</i>	<i>соглашение</i>	<i>kelishuv</i>
<i>fee</i>	<i>комиссия, вознаграждение</i>	<i>yig'im, badal</i>
<i>invoice</i>	<i>счет-фактура</i>	<i>to'lovnomasi</i>
<i>expense</i>	<i>трата, расход</i>	<i>sarf-xarajat</i>
<i>income</i>	<i>доход</i>	<i>daromad</i>
<i>forfeit</i>	<i>штраф</i>	<i>jarima</i>
<i>finance</i>	<i>финансы</i>	<i>moliya</i>
<i>tax</i>	<i>налоги</i>	<i>solliqlar</i>
<i>stamp</i>	<i>штамп, печать</i>	<i>muhr, tamg'a</i>
<i>inpayment</i>	<i>платеж</i>	<i>to'lov</i>
<i>business</i>	<i>бизнес</i>	<i>biznes</i>
<i>capital</i>	<i>капитал</i>	<i>sarmoya</i>
<i>debt</i>	<i>долг</i>	<i>qarz</i>
<i>assets</i>	<i>активы</i>	<i>aktiv</i>
<i>trade</i>	<i>торговля</i>	<i>savdo</i>
<i>budget</i>	<i>бюджет</i>	<i>byudjet</i>

G'aznachilik sohasida qo'llaniladigan terminlar moliya-iqtisodning barcha sohalarida mehnat qiladigan mutaxassislar tomonidan bir xil tushuncha va terminlar sifatida foydalaniladi. Masalan, bu kabi terminlar sirasiga nutqiy sa'y-harakatlarni tejash va mazmundorlik tamoyillarini amalga oshirishda o'zining universalligi bilan ajralib turadigan, bir so'zdan iborat birliklar – bazaviy terminlarni kiritish mumkin. Bunday terminlarni tadqiq qilish ularning noyobligi va mazmunan boyligini aniqlaydi;

bazaviy moliya-iqtisod terminlari uzoq vaqt mobaynida donor, ya'ni yaratuvchi tildan turli retsiptiyent tillarga uzoq vaqt davomida o'zlashtirilgani, ularda deyarli o'zgarishlarsiz, yoki retsiptiyent til xususiyatlari taqozosi bilan muayyan juz'iy fonetik va grafik moslashtirishlar bilan mustahkamlangan (5-jadval):

5-jadval.

Ingliz, o'zbek va rus tillarida qo'llanadigan baynalminal terminlar

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
<i>advance</i>	<i>аванс</i>	<i>avans (bo'nak)</i>
<i>bank</i>	<i>банк</i>	<i>bank</i>
<i>balance</i>	<i>баланс</i>	<i>balans</i>
<i>capital</i>	<i>капитал</i>	<i>kapital</i>
<i>cheque</i>	<i>чек</i>	<i>chek</i>
<i>deficit</i>	<i>дефицит</i>	<i>defitsit (kamomad)</i>
<i>export</i>	<i>экспорт</i>	<i>eksport</i>
<i>fund</i>	<i>фонд</i>	<i>fond</i>
<i>import</i>	<i>импорт</i>	<i>import</i>
<i>tariff</i>	<i>тариф</i>	<i>tarif</i>

Yuqorida keltirilgan terminlarning yevropa tillaridan slavyan (rus) va turkiy (o'zbek) tillariga o'zlashganligi, avvalo, ularning axborotga boyligi, bir ma'noliligi, aniqligi hamda baynalmilalligidan dalolat beradi. Bu kabi xususiyatlar esa so'zlarning o'zlashtirilishiga asosiy sabab bo'lgan. Albatta, ingliz tilidan, odatda, rus tili orqali va keyingi 20 yil davomida bevosita, ya'ni vositachi til ishtirokisiz o'zlashtirilgan terminlar ustuvorlik qiladi. Masalan, bu fikr umumiy o'zbek tili termin yasalishi jarayoniga ham, ixtisoslashgan o'zbek tili moliya-iqtisod sohasida termin yasalishi (jumladan, g'aznachilik sohasida qo'llanadigan terminlar)ga ham birdek taalluqlidir (6-jadval):

6-jadval.

O'zbekcha moliyaviy-iqtisodiy ekvivalentlar – arabcha va forsha o'zlashmalar

Inglizcha	Ruscha	O'zbekcha
<i>forfeit</i>	<i>штраф</i>	<i>jarima (arab)</i>
<i>crisis</i>	<i>кризис</i>	<i>inqiroz (arab)</i>
<i>reform</i>	<i>реформа</i>	<i>islohot (arab)</i>
<i>economy</i>	<i>экономика</i>	<i>iqtisodiyot (arab)</i>
<i>finance</i>	<i>финансы</i>	<i>moliya (arab)</i>
<i>property</i>	<i>собственность имущество</i>	<i>mulk (arab)</i>
<i>price</i>	<i>цена</i>	<i>narx (fors)</i>
<i>shortage</i>	<i>недостатка</i>	<i>kamomad (fors)</i>

Aynan shuning uchun o'zbek tili terminologiyasini ingliz va rus tillari bilan chog'ishtirma tadqiq qilish o'z spetsifikasiga ega. Zero, unda moliya-iqtisod sohasi, uning bo'linmalarida birdek faol qo'llaniluvchi interterminlar hamda asl o'zbekcha va fors, arab tillaridan o'zlashgan nointerterminlar ham mavjud.

G'aznachilik sohasidagi yangi terminlar yasalishida metafora muhim ahamiyat kasb etib, kasbiy muloqotning real sharoitidagi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'xshash va farqli jihatlari yuzaga chiqadi, ularga asoslanib neologizmlar yaraladi.

O'zbek tili g'aznachilik terminlari sof o'zbek tilidagi so'zlar hamda oldindan umumiste'molda mavjud bo'lgan sohaviy terminlar muqobili bilan semantik usul orqali yasalishi natijasida, so'z birikmalar g'aznachilik terminlarida o'z ifodasini topadi. Masalan: *board* (*boardroom bank boshqaruv hay'atining majlislar zali*); *cap* (*cap rate eng yuqori foizli kredit*); *charge* (*charges xarajatlar*); *flow* (*cash flow pul oqimi*); *clearing* (*check clearing cheklar kliringi*); *teller* (*commercial teller korxonadagi buxgalteriya xodimi*); *exception* (*exceptions nostandart bitim*); *finish* (*finished goods tayyor mahsulot*); *mortgage* (*mortgage loan ipoteka krediti*) va b.

Ingliz va o'zbek moliya-iqtisod terminologiyasining o'zaro ta'sirini tahlil qila turib, terminlarning shakllanish tizimidagi tafovutni qayd qilmaslik mumkin emas. Masalan, ko'p hollarda ingliz tilida terminlar morfologik usullar (suffiksalar yordamida, asoslarni qo'shish va boshqalar) yordamida hosil bo'lsa, o'zbek tiliga bunday termin o'zlashayotgan vaqtda kalka yoki transliteratsiya va kalka uyg'unligi vositasida semantik so'z yasash usuli muhim rol o'ynaydi. Misollarni saralash jarayonida D.S. Lotte tomonidan ishlab chiqilgan kalka ko'rinishlari tasnifiga rioya qildik. Mazkur tasnif quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'zga til leksik birliklari strukturasi o'zlashadigan deyarli tarjima; o'zga til so'zida aks etgan ma'noni milliy til so'ziga yuklash jarayoni kuzatiladigan semantik kalka; turg'un birikmalar tarkibidagi so'zlarni tarjima qilish bilan bog'liq frazeologik kalkadir [Lotte, 1994] (7-jadval):

7-jadval.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga kalkalash va transliteratsiya namunalari

Ingliz tili	O'zbek tili
<i>tin – taxpayer identification number</i>	<i>stir – soliq to'lovchining identifikatsion raqami</i>
<i>taxpayer</i>	<i>soliq to'lovchi</i>
<i>taxation</i>	<i>soliqqa tortish</i>
<i>electronic payment (e-payment)</i>	<i>elektron to'lovi</i>
<i>deposit account</i>	<i>depozit schyoti</i>
<i>account</i>	<i>hisobraqam; to'lovnoma</i>
<i>accredit</i>	<i>kredit ajratmoq</i>
<i>bidder</i>	<i>savdo ishtirokchisi</i>
<i>billing</i>	<i>to'lovnoma yozib berish</i>
<i>broker</i>	<i>broker; dallol, vositachi, vakil</i>
<i>daywork</i>	<i>vaqtbay ish</i>
<i>deduction</i>	<i>chegirib qolish</i>
<i>custom duty</i>	<i>bojxona boji</i>
<i>encashment</i>	<i>inkassatsiya qilish</i>
<i>extra-budgetary</i>	<i>smetadan ortiqcha</i>
<i>financing</i>	<i>mablag' bilan ta'minlash, mablag' ajratish</i>
<i>infrastructure</i>	<i>infratuzilma</i>
<i>futures contracts</i>	<i>fyuchers bitimlar</i>
<i>invoice</i>	<i>invoys</i>
<i>internet-banking</i>	<i>internet-banking</i>

Shuningdek, terminning inglizcha transliteratsiyalangan o'zak bilan o'zbek fe'l yasovchi affikslari qo'shilishidan hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin: *akseptlamoq*.

Zamonaviy sharoitlarda o'zbek tili terminologiyasi uzluksiz boyib bormoqda. Biroq zamonaviy ingliz moliya-iqtisod terminologiyasining o'zbek va rus tillariga bevosita ta'sirini, shu bilan birga, o'zbek tili moliya-iqtisod terminologiyasi shakllanish jarayonining o'ziga xosligini hisobga olgan holda tillararo aloqalarni batafsil tahlil qilmay turib, terminlar o'zlashishi "ko'p miqdorda" ingliz yoki boshqa chet tillaridan sodir bo'ladi, deb ta'kidlashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki, yaqin aloqalar sharoitida moliyaviy-iqtisodiy faoliyat taraqqiyoti tarixiy jarayonlarini hisobga oladigan bo'lsak, xalqlararo texnologiyalar, g'oyalar va til materiallarining ko'p tomonlama, ko'p qirrali almashinuvi kuzatiladi. Aynan shu tarzda chog'ishtirilayotgan tillarning individual xususiyatlari ochib beriladi.

Ingliz tili ta'sirida kalka yoki transliteratsiya usullari yordamida shakllangan o'zbek tili moliya-iqtisod terminlari nafaqat o'zbek tilining lug'at zaxirasini boyitadi, balki o'zbek tilining xususiy vositalari yordamida tilda avval mavjud bo'lmagan tushuncha va realiyalar ekvivalentini (muqobilini) vujudga keltirgan holda moliya-iqtisod sohalari – g'aznachilik, bank tizimi, soliq va bojxona tizimi, biznes va marketing tili va hokazo terminosferalarda paydo bo'luvchi realiyalarni nomlash uchun nomlovchi birliklar zaxirasini ham kengaytiradi.

Ingliz tiliga xos bo'lgan yangi terminologik tushunchalarni konversiya yordamida hosil qilish usuli agglyutinativ til hisoblangan o'zbek tiliga taalluqli emas.

XULOSA

Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi g'aznachilik sohasida qo'llanadigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarni chog'ishtirma o'rganish quyidagi ilmiy xulosalarga olib keladi:

1. Xalqaro hamkorlik, madaniyatlar hamda tillararo aloqalar, integratsiya va globalizatsiya natijasi soha faoliyatining rivojlanishiga muhim turtki bo'ladi. Bu esa o'z navbatida muloqot doirasini kengayishiga, maxsus leksik qatlamlarning takomillashuviga olib keladi. Moliya-iqtisod terminosistemalarining sotsiolingvistik, lingvistik, tarixiy-madaniy voqeliklar prizmasi orqali qiyosiy tahlili ingliz, rus va o'zbek tillari singari turli strukturali tillarning o'zaro kesishuvidagi umumiy va xususiy nuqtalarini, lingvistik xususiyatlarni tadqiq qilish muhim ekanligini ko'rsatadi. Mazkur kesishuv nuqtalar yoxud o'ziga xos xususiyatlar orqali, birinchi navbatda, ingliz, rus va o'zbek moliya-iqtisod sohasida g'aznachilik xizmatlarining qay darajada rivojlanganligini va qanday nazorat boshqaruvi mavjud bo'lganligini kuzatish mumkin.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy tushunchalarni ifodalash jarayonida qo'shma va birikma terminlarning muqobili bo'lmish akronim, abbreviaturalar og'zaki, yozma nutqning tejankor vositasi vazifasini bajaradi. Mazkur xususiyat aksariyat ingliz tili g'aznachilik terminlariga xos bo'lib, tarjimada ularning tarkibini tashkil etuvchi elementlarga aniqlik kiritib, kengaytirilgan shakl orqali talqin qilish maqsadga muvofiq. Termin-qisqartmalar (akronim va abbreviaturalar)ning qo'llanilishi terminologiyada muhim hodisalardan biridir. Ular inson nutqi vositalarini va energiyasini tejash, soha mutaxassislari uchun ish unumini oshirish uchun qo'l keladi.

3. Ingliz, o'zbek va rus tillari g'aznachilik terminosferalarida qo'llaniluvchi

terminologik birliklarning chogʻishtirma tadqiqi mazkur sohalardagi hujjatlar, obyektlar, lavozimlar, kirim-chiqim xarajatlari, daromadlarni nomlash bilan bogʻliq terminlarni hosil qilishdagi oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chogʻishtirilayotgan tillarning har biri muayyan rivojlanish bosqichida yangi tushunchalarni oʻzlashtirish bosqichini boshidan kechirgan. Mazkur jarayonda toʻgʻridan toʻgʻri soʻz oʻzlashtirish, kalkalash va transliteratsiya muhim rol oʻynaydi. Aksariyat hollarda oʻzlashgan terminlar retsipyent til lugʻat zaxirasidan oʻrin egallab, tilning oʻz qatlam tushunchalari bilan teng (parallel) amal qiladi.

4. Moliya-iqtisod terminlarini ingliz tilidan rus yoki oʻzbek tiliga tarjima qilish jarayonida tillarning grammatik va morfologik xususiyatlarining turliligi sababli tilda evfimizatsiya va kontekstualizatsiya tendensiyalari natijasida yuzaga keladigan koʻp maʼnolilik, dubletlik, variantdoshlik kabi qiyinchiliklarning kelib chiqishini eʼtiborga olish zarur. Bundan tashqari, ingliz tilida rivojlangan akronim va abbreviatsiyalarni yoxud terminlarni qisqartirish bilan bogʻliq jarayonlarini tarjima qilish masalalarini nazardan qochirmaslik lozim. Ingliz tilidagi abbreviatsiya, akronim, terminlarni qisqartirish tendensiyasi oʻzbek va rus tillariga xos xususiyat boʻlib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, Ch.S. (2000). Russko-uzbekskiy paraleli v sovremennoy ekonomicheskoy terminologii. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Tashkent.
2. Axmedov, O.S. (2016). Ingliz va oʻzbek tillarida soliq va bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. *Filol. fan. dok. diss. avtoref.* Toshkent: Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti.
3. Azizov, A.A. (1983). *Sopostavitel'naya grammatika russkogo i uzbekskogo yazykov* (monografiya). Tashkent: Izdatel'stvo "Prepodovatel".
4. Boduen de Kurtene, I.A. (Red.). (1905). *Tolkovyy slovar' zhivogo velikoruskogo yazyka Vladimira Dalya* (3-ye izd.). Moskva: Izdaniye knigoprodavtsa-tipografa I.O. Vol'fa.
5. Brunner, K. (2003). *Istoriya angliyskogo yazyka*. Moskva: Redaktsiya URSS.
6. Bulgakova, I.Y. (2010). Formirovaniye terminologii angliyskogo dokumentovedeniya v donauchnuyu epokhu. *Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta*, 1(9), 20–26.
7. Dadabayev, H.A. (1991). Obshchestvenno – politicheskaya i sotsial'no – ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazychnykh pis'mennykh pamyatnikakh XI – XIV vv. *Diss. dok. filol. nauk*. Tashkent.
8. Daniyarov, B.Kh. (1993). Issledovaniye leksicheskoy sinonimii, voznikshey na baze zaimstvovaniy v sovremennom uzbekskom yazyke. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva.
9. Kas'yanov, V.V. (2001). Sopostavitel'nyy analiz sovremennoy terminologii finansovoy deyatel'nosti v angliyskom i angliyskom yazykakh. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy lingvisticheskiy universitet.
10. Kinchina, Ye.V. (1999). Kognitivnyye aspekty perevoda ekonomicheskikh terminov (na materiale angliyskogo i russkogo yazykov). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennyy universitet.
11. Kitaygorodskaya, M.B. (1996). Sovremennaya ekonomicheskaya terminologiya (Sostav. Ustroystvo. Funktsionirovaniye.). V knige Y.A. Zemskaya (Red.), *Russkiy yazyk kontsa XX stoletiya (1985-1995)* (ss. 162–236). Moskva: Yazyki russkoy kul'tury.
12. Kondrat'yeva, T.S. (2001). Leksiko-semanticheskiye i derivatsionno-metayazykovyye osobennosti terminosfery «Ekonomika-Rynok-Pravo» (na materiale russkogo, angliyskogo i nemetskogo yazykov). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennyy universitet.

13. Krysin, L.P. (1998). *Tolkovyy slovar' inoyazychnykh slov*. Moskva: Eksmo.
14. Kubryakova, Y.S. (1988). Rol' slovoobrazovaniya v ostavshikh-sya kartinakh mira. V knige B.A. Serebrennikov (Red.), *Rol' chelovecheskogo faktora v yazyke: yazyk i izobrazheniye mira* (ss. 141–172). Moskva: Nauka.
15. Lotte, D.S. (1994). Udostovereniye tekhnicheskoy terminologii. V knige V.A. Tatarinov (Red.), *Istoriya otechestvennogo terminovedeniya. Klassiki terminovedeniya: Ocherk i khrestomatiya* (ss. 58–80). Moskva: Moskovskiy litsey.
16. Mitireva, L.N. (2002). Psikholingvisticheskiy analiz neologizmov, zaimstvovannykh iz angliyskogo yazyka (na materiale ekonomicheskikh terminov). *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Moskva: Moskovskiy gosudarstvennyy lingvisticheskiy universitet.
17. Musayev, Q.M., Erdonayev, A.H., & Qudratov, M.Sh. (1998). *Iqtisodiyot. Moliya. Tijorat (inglizcha-o'zbekcha lug'at)*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot uyi.
18. Nikolayeva, A.G. (1995). *Anglo-russkiy istoricheskiy slovar'*. Moskva: Progress.
19. Nishonov, P. (2009). Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. *Filol. fan. nom. diss. avtoref.* Toshkent.
20. Olimjonov, O.O., Malikov, T.S., & Qoraliyev, T.M. (1996). *Zamonaviy moliya-bank atama va iboralarining inglizcha-ruscha-o'zbekcha ekvivalent lug'ati*. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati.
21. Okuneva, A.P. (1991). Birzha, broker, aktsiya, dividend. *Russkiy yazyk v SSSR*, 9, 9–12.
22. Omel'chenko, O.A. (2000). *Vseobshchaya istoriya gosudarstva i prava* (3-ye izd.). Moskva: TON-Ostozh'ye.
23. Podchasova, S.V. (1994). Brokery, dilery i drugiye posredniki. *Russkaya rech'*, 6, 52–56.
24. Prosvirina, L.G. (2015). Kontseptsii mesta i imeni sobstvennogo v sostave sokrashchennykh angliyskikh terminov ekonomicheskikh s onomasticheskimi komponentami. *Vestnik Sibirskogo biznesa i informatsionnykh tekhnologiy*, 2(14), 105–110.
25. Proshina, A.A. (2008). Ekonomika: upravleniye ponyatiynoy sferoy i terminosferoy v angliyskom i nemetskom yazykakh. *Vestnik Yuzhno-Ural'skogo gosudarstvennogo universiteta*, 1(101), 83–86.
26. Reformatskiy, A.A. (1967). *Vvedenii v yazykoznaniy*. Moskva: Aspekt Press.
27. Rozhdestvenskiy, A.V., Kurakov, A.L., & Vatkovski, L.G. (2000). *Slovar' finansovykh i bankovskikh terminov*. Cheboksary: Izdatel'stvo Chuvashskogo universiteta.
28. Sageder, D. (2010). Terminology today: A science, an art or a practice? Some aspects on terminology and its development. *Brno Studies in English*, 36(1), 123–134.
29. Sen'ko, Ye.V. (1994). *Innovatsii v sovremennom angliyskom yazyke*. Vladikavkaz: Izdatel'stvo "Ir".
30. Serbinovskaya, N.V. (2008). Formirovaniye i razvitiye terminologicheskogo polya «marketing» v russkom yazyke. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Rostov-na-Donu: Yuzhnyy federal'nyy universitet.
31. Sidorenko, Yu.N. (2005). Puti formirovaniya angliyskoy birzhevoy terminologii. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Omsk: Omskiy gosudarstvennyy tekhnicheskii universitet.
32. Usmonov, S. (1968). *O'zbek terminologiyasining ba'zi masalalari*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot uyi.
33. Valiyeva, Z.A. (2009). Sopostavitel'nyy analiz finansovo-bankovskikh terminov v tadzhiksom i angliyskom yazykakh. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Dushanbe: Rossiysko-Tadzhikskiy (Slavyanskiy) universitet.
34. Shakhbazyan, O.L. (2008). Suffiks'al'naya terminoderivatsiya v yazyke ekonomiki: kognitivnyy aspekt. *Avtoref. diss. kand. filol. nauk*. Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennyy universitet.
35. Shvedova, N.Yu., Arutyunova, N.D., Bondarko, A.V. (Red.). (1980). *Russkaya grammatika* (T.1). Moskva: Izdatel'stvo "Nauka".

REFERENCES

1. Abdullaeva, Ch.S. (2000). Russian-Uzbek parallels in modern economic terminology. Author's abstract. diss. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Tashkent.
2. Akhmedov, O.S. (2016). Linguistic analysis and translation problems of tax and customs terms in English and Uzbek languages. *Abs. DSc thes. philol.* Tashkent.
3. Azizov, A.A. (1983). *Comparative grammar of Russian and Uzbek languages* (monograph). Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
4. Baudouin de Courtenay, I.A. (Ed.). (1905). *Explanatory dictionary of the living great Russian language by Vladimir Dal* (3rd ed.). Moscow: Publication by bookseller-typographer I.O. Wolf.
5. Brunner, K. (2003). *History of the English language*. Moscow: URSS Editorial Office.
6. Bulgakova, I.Y. (2010). Formation of English document management terminology in the pre-scientific era. *Bulletin of the Irkutsk State Linguistic University*, 1(9), 20–26.
7. Dadabaev, Kh.A. (1991). Social-political and socio-economic terminology in Turkic written monuments of the 11th-14th centuries. *DSc thes. philol.* Tashkent.
8. Daniyarov, B.Kh. (1993). A study of lexical synonymy that arose based on borrowings in the modern Uzbek language. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Moscow.
9. Kasyanov, V.V. (2001). Comparative analysis of modern terminology of financial activity in English and Russian languages. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Moscow: Moscow State Linguistic University.
10. Kinchina, Y.V. (1999). Cognitive aspects of the translation of economic terms (based on the material of English and Russian languages). *Diss. abs. cand. philol. scien.* Krasnodar: Kuban State University.
11. Kitaigorodskaya, M.B. (1996). Modern economic terminology (Composition. Structure. Functioning.). In Y.A. Zemskaya (Ed.), *Russian Language of the Late 20th Century (1985–1995)* (pp. 162–236). Moscow: Languages of Russian culture.
12. Kondratyeva, T.S. (2001). Lexical-semantic and derivational-metalinguistic features of the terminosphere "Economics-Market-Law" (based on material from Russian, English and German languages). *Diss. abs. cand. philol. scien.* Krasnodar: Kuban State University.
13. Krysin, L.P. (1998). *Explanatory dictionary of foreign words*. Moscow: Eksmo.
14. Kubryakova, Y.S. (1988). The role of word formation in the remaining pictures of the world. In B.A. Serebrennikov (Ed.), *The Role of the Human Factor in Language: Language and the Image of the World* (pp. 141–172). Moscow: Science.
15. Lotte, D.S. (1994). Certificate of technical terminology. In V.A. Tatarinov (Ed.), *History of Russian terminology. Classics of terminology: Essay and reader* (pp. 58–80). Moscow: Moscow Lyceum.
16. Mitireva, L.N. (2002). Psycholinguistic analysis of neologisms borrowed from English (based on economic terms). *Diss. abs. cand. philol. scien.* Moscow: Moscow State Linguistic University.
17. Musayev, Q.M., Erdonayev, A.H., & Qudratov, M.Sh. (1998). *Economics. Finance. Banking. Commerce (English-Uzbek dictionary)*. Tashkent: Publication House of 'Teacher'.
18. Nikolaeva, A.G. (1995). *English-Russian historical dictionary*. Moscow: Progress.
19. Nishanov, P. (2009). Comparative-typological study of legal terminology of French and Uzbek languages. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Tashkent.
20. Okuneva, A.P. (1991). Exchange, broker, share, dividends. *Russian Language in the USSR*, 9, 9–12.
21. Olimjonov, O.O., Malikov, T.S., & Karaliyev, T.M. (1996). *English-Russian-Uzbek equivalent dictionary of modern financial and banking terms and expressions*. Tashkent: Chief Editorial Office of 'East' Publishing-Printing Concern.
22. Omelchenko, O.A. (2000). *The history of state and law* (3rd ed.). Moscow: TON-Ostozhye.
23. Podchasova, S.V. (1994). Brokers, dealers and other intermediaries. *Russian Speech*, 6, 52–56.

24. Proshina, A.A. (2008). Economics: formation of the conceptual sphere and terminosphere in the Russian and German languages. *Bulletin of South Ural State University*, 1(101), 83–86.
25. Prosvirina, L.G. (2015). Concepts of place and proper name as part of abbreviated English economic terms with onomastic components. *Bulletin of Siberian Business and Information Technologies*, 2(14), 105–110.
26. Reformatsky, A.A. (1967). *Introduction to linguistics*. Moscow: Aspect Press.
27. Rozhdestvensky, A.V., Kurakov, A.L., & Vatkovsky, L.G. (2000). *Dictionary of financial and banking terms*. Cheboksary: Chuvash University Publishing House.
28. Sageder, D. (2010). Terminology today: A science, an art or a practice? Some aspects on terminology and its development. *Brno Studies in English*, 36(1), 123–134.
29. Serbinovskaya, N.V. (2008). Formation and development of the terminological field “marketing” in Russian. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Rostov-on-Don: South Federal University.
30. Shakhbazyan, O.L. (2008). Suffix term derivation in the language of economics: Cognitive aspect. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Krasnodar: Kuban State University.
31. Shvedova, N.Y., Arutyunova, N.D., Bondarko, A.V. (Eds.). (1980). *Russian grammar* (Vol. 1). Moscow: Publishing House of ‘Science’.
32. Sidorenko, Y.N. Ways to form English stock exchange terminology. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Omsk: Omsk State Technical University.
33. Senko, E.V. (1994). *Innovations in modern English*. Vladikavkaz: Publishing House of ‘Ir’.
34. Usmanov, S. (1968). *Some issues of Uzbek terminology*. Tashkent: Publishing House of ‘Teacher’.
35. Valieva, Z.A. (2009). Comparative analysis of financial and banking terms in Tajik and English. *Diss. abs. cand. philol. scien.* Dushanbe: Russian-Tajik (Slavic) University.